XALQ DEPUTATLARI JONDOR TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 26 - dekabr VI-73-219-2-35-K/22 Jondor tuman hokimligi

“Po‘loti” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etish to‘g‘risida

Mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etilishi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi 48-sonli “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi 295-sonli “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Jondor tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tumandagi “Po‘loti” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etilsin hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022 yil 30 noyabrdagi 08-10694-sonli xulosasiga muvofiq ushbu mahalla “Oromgoh” mahalla fuqarolar yig‘ini deb nomlansin va uning tarkibiga Oromgoh, Bunyodkor, va Jaloir aholi punktlari va ulardagi Kelajak sari, Payvandchi, Diyonat, Oromgoh, Ozodlik, Ipakchi, Jannatmakon, Polvonlar, Jaloir, Jaloir-1, Jaloir-2 ko‘chalari kiritilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo‘limi (J.Djavkashov)ga:

- “Oromgoh” mahalla fuqarolar yig‘iniga belgilangan tartibda muhr va tamg‘a tayyorlashga amaliy yordam berish;

- yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

3. Tumani hokimi o‘rinbosari A.Zokirov, tuman qurilish bo'limi (Sh.Vohidov) bilan birgalikda aholi punktini zamonaviy shaharsozlik talablari va milliy an’analarga muvofiq kompleks rivojlantirishni ta’minlash, me’moriy-tarixiy merosni saqlab qolish, qabul qilinayotgan loyiha yechimlari sifatini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 12 fevraldagi “Aholi punktlarini kompleks qurishda shaharsozlik normalari va qoidalari qat’iy bajarilishini nazorat qilishni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 41-sonli qarori talablari asosida yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan ko'chalarni tartibga keltirish, obodonlashtirish hamda mahalla fuqarolar yig‘iniga zamonaviy mahalla binosi qurish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman statistika bo‘limi (K.Ismoilov), Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi davlat Kadastr agentligi tuman bo‘limi (J.Qo‘chqorov), tuman qurilish bo‘limi (Sh.Vohidov), tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini tashkil etish masalalari bo‘yicha maslahatchisi (R.Raximova)lar boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda, tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

5. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Zokirov), tuman qurilish bo‘limi (Sh.Vohidov)larga, tumanda yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘iniga yangi nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn, hamda “Davlat tili haqida”gi qonun talablari asosida o‘rnatish ishlarini amalga oshirsin.

6. Tuman moliya bo'limi (U.Yangiyev)ga mahalla fuqarolar yig‘iniga shtat birliklariga moliyalashtirish vazifasi topshirilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha domiy komissiyasi raisi H.Qorayeva hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari H.Majitovlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash Raisi **S.Hikmatov**